



TURIZM SOHASIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH

Xodjimuratova Zuxra Zaynitdinovna

Oriental universiteti "Aniq fanlar" kafedrası

katta o'qituvchisi

zuxhra_doctor@yandex.ru

Тел: (+99897) 7485811

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10113240>

Annotatsiya. Maqolada turizm sohasini rivojlantirishda axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlarining o'rni haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so'zlar: turizm, axborot texnologiyalari, avtomatik bron qilish, onlayn bron qilish, iqtisodiyot, Internet, xizmatlar, masofaviy bron qilish.

Аннотация. В статье рассматривается роль информационных технологий и компьютерных систем в развитии индустрии туризма.

Ключевые слова: туризм, информационные технологии, автоматическое бронирование, онлайн-бронирование, экономика, Интернет, услуги, удаленное бронирование.

Annotation. This article discusses the role of information technologies and computer systems in the development of the tourism industry.

Key words: tourism, information technology, automatic booking, online booking, economy, Internet, services, remote booking.

Jahon turizmi sohasi iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha asosiy daromad keltiruvchi sohalardan biri hisoblanadi. Turizm sohasi aksariyat mamlakatlarning iqtisodiy tizimidagi eng daromadli sohalardan biridir. Turizm industriyasi o'zining ajoyib yutuqlari va ko'p yo'nalishlari bilan ajralib turadi, shuningdek, transport tizimiga va turli xalqaro munosabatlar o'rtasidagi savdo darajasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shulndan kelib chiqadi-ki, turizm sohasini rivojlantirish nafaqat shu sohani o'sishiga, balki xalqaro munosabatlarning rivojlanishiga, transport sohasining o'sishiga, tarixiy-madaniy obyektlarning saqlanishiga, madaniyatlarning tarqalishiga va boshqa ko'plab sohalarning o'sishiga ta'sir qiladi. Turizm industriyasida ayniqsa, axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlarini qo'llash orqali qulaylik, tezkorlik, osonlik, tejamkorlik, yangiliklardan xabardor bo'lish, yangi ish o'rinlarini yaratish kabi imkoniyatlarga ega bo'lish mumkin.

Turizm taraqqiyotining zamonaviy bosqichlarida uning tuzilishi va xususiyatlari bo'yicha qo'llaniladigan axborot texnologiyalari majmuasiga ko'ra bir nechta komponentlardan iborat: avtomatik bron tizimi, video tizimlarni sozlash, axborot oqimlarini muvofiqlashtirish, turli imtiyozli kartalardan



foydalanish tizimi, umumiy elektron pul o'tkazish tizimi, ma'lum muddatgacha bekor qilish tizimlari, sayyohlik kompaniyalari bilan integratsiyalash va boshqalar.

Hozirgi axborot texnologiyalari turizm sohasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning jadal rivojlanishini belgilovchi omil bo'lib kelmoqda. Sayyohlik kompaniyalari veb-saytining samarali faoliyati har qanday sayyohlik agentligining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Sayt faoliyati reklama yordamisiz amalga oshirilmaydi. Shaxsiy kompyuter va Internet, ommabop zamonaviy texnologiyalar turizmning barcha sohalariga tobora ko'proq axborot texnologiyalari joriy etilayotganining o'ziga xos omilidir. Turizm industriyasini yanada modernizatsiya qilish va mobillashtirish uchun sayyohlik kompaniyalari va turli xil sayyohlik agentliklari Internet-axborot resurslarining barcha imkoniyatlaridan foydalanadilar. Masalan, onlayn buyurtmalar turistik sayohatlarni elektron bron qilish imkonini berib, Internet rivojlanishi bilan zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari doirasida turizmning rivojlanishiga sabab bo'lgan kuchli omilga aylandi. Onlayn bronlashning o'ziga xos xususiyatlari aviakompaniyalarga kompaniya taklif qilayotgan turlarni maxsus narxlarda tashkil etish imkonini berdi, Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida sayyohlik kompaniyalari sezilarli o'sishni boshdan kechirdi, bu esa foydalanuvchilarning turizmning ushbu sohasiga bo'lgan qiziqishlarini yuqori ko'rsatkichi bilan tavsiflanadi. Masovafiy bron qilish usuli barcha sayyohlik faoliyatini o'zgartirib, uni yanada qulay va modernizatsiya qilishga muvaffaq bo'lgan progressiv omil bo'ldi [1].

Turoperatorlar o'z faoliyatida yangi axborot vositalaridan faol foydalanmoqdalar. Rivojlangan davlatlardagi barcha sayyohlik agentliklari taxminan 80-90% avtomatik bron qilish usulidan foydalanadi. Kompyuter bronlash tizimlaridan foydalanmasdan turib barcha amallarni boshqarishni tasavvur qilib bo'lmaydi. On-line bron qilish tizimi butun turizm sohasiga katta ta'sir ko'rsatdi. Kompyuterli bron qilish tizimidan foydalanish mehmonxona tanlash, mehmonxonada talabga ko'ra xona bron qilish, aviachiptalar, mashina ijarasi, poyezd chiptalariga buyurtma berish va shu kabi boshqa amallarni masofaviy bron qilishga imkon beradi. Avtomatik bronlashning eng katta va eng keng tarqalgan manbalari AMADEUS, Worldspan, Galileo, Sabre, Fidelio va b. bo'lib, ularning faoliyati xalqaro sayyohlik xizmatlar bozorining ajralmas qismi hisoblanadi.

Sayyohlik kompaniyalarida ishlatiladigan kompyuter tizimlari, ularning funktsional xususiyatlariga qarab, uchta sinfga bo'linadi [1]:



1) asosiy texnologik tizimlar. Ularning ishlash printsipi iste'molchining buyurtmalarining bajarilishini kafolatlashiga asoslanadi. Ushbu tizimlarda operator asosiy kompyuter tizimlariga kirish huquqiga ega bo'lib, iste'molchilarning buyurtmalarini tahlil qiladi;

2) yordamchi tizimlar. Yordamchi tizimlarning asosiy maqsadi sayyohlik kompaniyasi faoliyatiga tegishli hujjatlarni yaratishni avtomatlashtirishdir. Bunday hujjatlar uchun siz hisob-kitoblarni ro'yxatga olishingiz, maxsus dizayndagi chiptalarni yaratishingiz mumkin;

3) kompaniya faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni yangilashga hissa qo'shadigan muvofiqlashtirish tizimlari.

Turistik axborotni rivojlantirishda yana bir juda katta turtki internet global tarmog'i bo'ldi. Bugungi kunda deyarli barcha turistik firmalar e-mail elektron pochta orqali ushbu tarmoqqa chiqish imkoniyatiga ega. Tarmoqdan foydalanuvchilarning barchasi turistik xizmatlar haqida keng axborot olishda ulardan foydalanadilar. Turizmga javob beruvchi davlat tashkilotlari, xususiy kompaniyalar, turistik firmalar, otellar, turistik assotsiatsiyalar, tashuvchilar, atraksiya xizmatini taklif etuvchi firmalarda katta axborot tizimlari mavjud. Axborotni internet tarmog'iga joylashtirish umumiy holda kitob yoki buklet chiqarishdan arzon, axborot oson va tez ko'rinishini o'zgartiradi, yuqori sifatli rangli illustratsion ma'lumotni ham uzatish mumkin. Axborot rivojlangan mamakatlardagi foydalanuvchilarning keng doirasiga yetib boradi [2].


O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, AQShda Internet orqali amalga oshiriladigan xizmatlarning 60% dan ortig'i sayyohlik xizmatlari sohasiga to'g'ri keladi. Turizm sohasida talab narxga bog'liq bo'lib, shuning uchun talab qilinadigan ma'lumotlarga oid qidiruv so'rovlari ko'pincha hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki iste'molchilar boshqa har qanday ma'lumot manbasiga Internet orqali chiptalar va mehmonxonalarni qidirish va buyurtma qilishni afzal ko'rishadi [1].

O'zbekistonda ham sayyohlik agentliklari kompyuterli bron qilish orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bunda asosan mehmonxonalaridagi xonalarni bron qilish xizmatlaridan foydalanilmoqda, shuningdek, aviachiptalar, temir yo'l chiptalarini online bron qiladigan turagentliklar ham bor, lekin online bron qilish asosan individual holatlarda amalga oshiriladi, ya'ni alohida yo'nalishda sayohat qilmoqchi bo'lgan shaxslarning istak-hohishlariga ko'ra, umumiy turlarda esa bunday emas. Hozirda axborot texnologiyalaridan yetarli bilimga bo'lgan insonlarning o'zlari ham to'g'ridan-to'g'ri internet veb-saytlaridan on-line bron qilish imkoniga ega.



Har ikkala holatda ham, on-line bronlash tizimlaridan foydalanib aviachiptalar, temir yo'l chiptalari, mehmonxonalar, turli xizmatlarni bronlash turizm sohasida o'sishga olib keladi.

Davlat Statistika agentligi xabariga ko'ra 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 5,2 mln. nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda O'zbekistonga tashrif buyurgan. Qayd etilishicha, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 3,4 mln nafarga yoki 2,8 baravarga oshgan [3].



Demak, chet el fuqrolarining O'zbekistonga turizm sohasida qiziqishi ortayotgan ekan, O'zbekiston sayyohlik kompaniyalari ham Jahon turistik agentliklariga zamovaviy axborot texnologiyalari, Intennet tizimlari, xizmatlari orqali integratsiyalashuvi O'zbekiston Turizm sohasining yanada rivojlanishiga, O'zbekiston Iqtisodiyotining o'sishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гасымова, Хавер Агададаш. Информационные технологии в туризме / Хавер Агададаш Гасымова. Текст : непосредственный // Молодой ученый. 2019. № 4 (242). С. 221-223
2. М.А.Мирзайев. Туризм asoslari: bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'um vazirligi. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011. - 288 b.
3. <https://xabardor.uz/uz/post/ozbekistonga-2022-yilda-nechta-turist-kelgani-aytildi>